O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA OG`ISHGAN XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Abdialimova Feruza Asrorovna

Sardoba tumani 6- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs ruivojlanishidagi murakkab davrlardan biri bo`lgan o`smirlik davri, hamda unda uchrashi mumkin bo`lgan deviant xulq-atvor haqida fikr yuritilingan. Shuning bilan birga, maqolada turli xil psixolog-olimlarning ilmiy izlanishlari va o`smirlik davrida deviant xulq-atvorning qanday ko`rinishlari mavjudligi haqidagi ilmiy qarashlar ham bayon qilingan.

**Kalit so`z:** o`smirlik, organik, psixotik, nasliy buzuqlik, delikvent, addiktiv, pataxarakterologik, psixopatologik, giperpatiya.

KIRISH

Shaxs rivojlanishida eng og`ir va murakkab davrlardan biri bu o`smirlik davridir. Shaxsning qadriyatlari, e’tiqodi, ideallari va ijtimoiy yo`nalganligi shakllanadigan ushbu davr og`ishgan xulq-atvor ko`rinishlarining namoyon bo`lishi uchun ham eng qulay davr hisoblanadi. Shuning uchun ham o`smirlarda deviant xulq shakllanishining psixologik xususiyatini tadqiq qilish va o`rganish katta ahamiyat kasb etadi

O`smirlik -bu harakterning shakllanish davri. Aynan shu davrda atrofmuhitning ta’siri juda katta kuchga ega. O`smirlik 10-11 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan rivojlanish davri bo`lib, u bolaning bolalikdan kattalikka o`tish boshlanishiga to`g`ri keladi va “o`smirlik inqirozi” kabi tushuncha bilan tavsiflanadi. O`smirlik inqirozi tashqi (ta’lim faoliyati tabiatining o`zgarishi, kattalar tomonidan talablar birligining yo`qligi, bolaning ijtimoiy holatining o`zgarishi va boshqalar) va ichki (biologik va psixologik determinantlar) old shartlar bilan tavsiflanadi. O`smirlarda og`ishlar giyohvandlik, o`z joniga qasd qilish, dissotsial shakllarda, shuningdek, giperkinestik kasalliklarda, oilada cheklangan xatti-harakatlarning buzilishida, jinsiy og`ishlarda va boshqalarda namoyon bo`ladi. O`smirning xulq-atvori uning harakterini shakllantirishning murakkab jarayonining tashqi ko`rinishidir. Jiddiy xulq-atvor buzilishlari, odatda, bu jarayondagi og`ishlar bilan bog`liq. Ko`incha bolalarning hissiy rivojlanishi buziladi va xatti-harakati qiyinlashadi. Shu

munosabat bilan psixologik rivojlanishning asoratlari ko`pincha yuzaga keladi va bu asoratlarning aksariyati psixologik kasalliklar alomati emas, balki normadan chetga chiqishdir. Deviant xulq-atvor o`smirlar orasida tarqalishi 40-65% ni tashkil qiladi.

O`quvchilar xulq-atvoridagi salbiy og`ishlar borasida olimlar bir qator tipologiyalarni yaratishgan. Quyida psixolog V.Klanynning o`smirlardagi salbiy og`ishlarga oid qarashlariga to`xtalib o`tamiz.

1. “Esi past”. O`smirlarning xulq-atvorida sho`xlik, yoqimsiz xattiharakatlar yetakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta’lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sababchi bo`lishlari, kinoga biletsiz kirishlari, doim janjallashish, atrofdagilarni ko`nglini qoldirish, narkotikni tatib ko`rishga moyil bo`lishlari.

2. “Ota-oaning dushmani”. Bu toifadagi o`smirlar o`z xatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatga qoldriadilar, ularga norozilik hissini ochiq oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislari ortib boradi.

3. “Axloqsiz bola”. Bunday o`smirlar asotsial yo`nalishga ega. Ularning hissiy va intellectual taraqqiyotida o`zgarishlar yo`q, xulq-atvorida ham yaqqol o`zgarish kuzatilmaydi. Ularda qonunbuzarlar bilan aloqada bo`lishga moyillik bor. Bu holat bolaga nisbatan oiladagi e’tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zamirida vujudga kelishi mumkin.

4. “Organik”. Bu toifadagi bolalarda miyaning lat yeyishi yoki aqliy taraqqiyotida ortda qolish yuzaga keladi. Bu esa tartib-intizomni hamda xulqatvorning buzilishiga olib keladi. Bunda bolalar ko`pincha o`z tengdoshlari bilan janjallashadilar.

5. “Psixotiklar”. Aqliy yetilmagan, kasalmand bolalar bo`lib, ular uchun gallyutsinatsiya, jinoiy harakatlardan hursand bo`lish, buzg`unchi fikrlar hukmronlik qiladi.

6. “Nasliy buzuqlik”. Bu toifadagilar birlamchi psixopatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy xatti-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda xatti-harakatlar ilk yoshdayoq namoyon bo`ladi. Ularda mas’uliyat hissi yo`q va ishonib bo`lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko`rsatish ancha mushkuldir

O`smirning deviant xatti-harakatlarini tasniflashning bir nechta variantlari mavjud. Tibbiy yondashuv doirasida rus psixiatri, psixoterapevti va patopsixologi

V.D.Mendelevich tomonidan taklif qilingan tipologiya keng tarqalgan. U voqelik bilan o`zaro ta'sir qilish usullariga, ijtimoiy me'yorlarning buzlishi tabiatiga asolanadi:

• Delikvent tip. Jinoiy deb hisoblangan harakatlar: o`g`irlik, talonchilik, zo`ravonlik kabilar kiradi.

• Addiktiv tip. Haqiqatdan qochish, kuchli his-tuyg`ularni saqlab qolish istagi shakllanadi. Sun'iy ravishda o`smirlar o`zlarining ruhiy holatida o`zgarishlarga erishadilar, ular: kimyoviy moddalardan foydalanadilar (alkogolizm, giyohvandlik taksikomaniya), diqqatlarni ma'lum stimullarga, harakatlar (trans, mastrubatsiya)ga qaratadilar.

• Patoxarakterologik tip. Xulq-atvor ta'lim jarayonida shakllangan patologik harakter belgilari bilan belgilanadi. Bu guruhga harakter urg`usi – psixopatiya (gisteroid, schizoid, epileptoid va boshqalar) kiradi.

• Psixopatologik tip. O`smirning xulq-atvor reaksiyalari psixopatologik sindromlarning namoyon bo`lishi va ruhiy kasallik belgilaridir. Misol uchun:

apatiya – depressiya alomati, gipomaniya – bipolyar buzilishning namoyonidir.

• Giperpatiya. Iqtidor, iste'dod, daho me'yordan chetga chiqadigan harakatlarda namoyon bo`ladi.

O`smirlikdagi og`ishlar aniq ifodalangan bosqichga ega emas. Rivojlanish yagona og`ish harakatlaridan muntazam takrorlanadigan harakatlarga, uyushgan faoliyatga, turmush tarziga o`tadi. Taraqqiyot bir necha hafta, oy, yil davom etishi mumkin.

Tadqiqotchi K.E.Igoshevning ta'kidlashicha, "Bolalar va o`smirlar ayniqsa, o`smir va o`spirinlarning yosh va o`tish davri xususiyatlari impulsivlik, qo`zg`aluvchanlik holatining yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Impulsiv xattiharakat birinchi navbatda o`ziga xos affektiv kechinmalar tufayli yuzaga keladigan affektiv holatni ifodalaydi. Bunday holat mazmunida qisqa muddatli va kuchayib boruvchi emotsional hissiyotlar yotadi"

Zamonaviy mahalliy tadqiqotchi Yu.A.Kleyberg o`smirlar deviantligi misolida shaxsning madaniy normalarga munosabati orqali deviant axloqni ochib beradi. Og`ishgan

xulq- bu “shaxsning unga qadrli munosabatni namoyon qilishi vositasida ijtimoiy me’yor va kutishlarni o`zgartirishning maxsus usuli”. Buning uchun alohida usullardan foydalaniladi: sleng, simivolika, moda, manera, harakat va hokazo. O`smirlarning deviant harakatlari ahamiyatli maqsadlar, o`z-o`zini tasdqilash va razryadka vositasi sifatida chiqadi.

1932-yili N.I.Ozerskiy tomonidan voyaga yetmagan qonunbuzarlar tipologiyasini bugungi kunda ham dolzarb bo`lgan ifodalanganlik darajasi va harakteri bo`yicha deformatsiyasini taklif qildi: tasodifiy, odatiy, turg`un va professional qonunbuzarlar.

Qonunbuzarlikni sodir etgan o`smirlar orasida A.I.Dolgova, Ye.G.Gorbatovskaya, V.A.Shumilkin va boshqalar, o`z navbatida, quyidagi uch tipni ajratadi:

1) Izchil-kriminogen – ijtimoiy muhit bilan o`zaro ta’sirda jinoiy axloq shaxsning kriminogen “hissasi” hal qiluvchi hisoblanadi, jinoyat axloqning odatiy usulidan kelib chiqadi, u sub’yektning maxsus qarashlari, ko`rsatmalari va qadriyatlari bilan shartlanadi;

2) Vaziyatli-kriminogen – axloqiy me’yorlarning buzlishi, jinoiy bo`lmagan xarakterdagi qonunbuzarlik va jinoyatning o`zi ahamiyatli darajda notinch vaziyatlar bilan shartlangan; jimoiy axloq sub’yektning rejalariga mos tushmasligi, uning nuqtai nazarida ekssess bo`lishi mumkin; bunday o’smirlar ko`pincha qonunbuzarlikning tashabbuskori hisoblanmay, spirtli ichimliklar kayfidagi holatda guruhda jinoyat sodir etadilar;

3) Vaziyatli tip – salbiy axloqning ahamiyatsiz ifodalanganligi; individ aybi bilan yuzaga kelmagan vaziyatning hal qiluvchi ta’siri; bunday o`smirlar hayotining usuli ijobiy va salbiy ta’sirlar kurashi bilan xarakterlanadi

Deviant xulq-atvor tajovuzkorlik, sadism, o`g`rilik, yolg`onchilik, sargardonlik, tashvish, tushkunlik orqali namoyon bo`ladi. Bunday xulq-atvorga ega bo`lgan o`smirlar ko`pincha o`zlarini jamiyatdan maqsadli ravishda ajratib qo`yishadi, o`z joniga qasd qilishga urunishadi, turli xil fobiyalardan aziyat chekishadi.

XULOSA

O`smirlarning deviant axloqi mahalliy va tibbiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. U, qoidagidek, delikvent xloq, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni barvaqt

iste’mol qilish, jinsiy axloq deviatsiyasi, suitsidal axloq, uydan qochib ketish va daydilik kabi shakllarni o`z ichiga oladi. Ma’lumki, balog`at yoshi hisoblangan (12-14 yosh davrida) o`smirlik davrida keskin psixofiziologik o`zgarishlar sodir bo`ladi. Ushbu o`zgarishlar ko`pincha o`smir ruhiyatiga ham ta’sir o`tkazadi. Bu o`smirda tajanglik, serzardalik, injiqlik, ta’sirlanuvchanlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo`ladi. O`smir ruhiy dunyosida paydo bo`lgan bunday o`zgarishlar balog`at davri o`tishi bilan bir me’yorga kelib qoladi. Shuning uchun balog`at yoshi davrida ota-onalar o`smirlar tarbiyasiga alohida e’tibor berishlari, ularda kechayotgan psixofiziologik o`zgarishlarni hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir. Ko`pincha oilaviy tarbiyada bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarining inobatga olinmasligi ularning noto`g`ri, yomon yo`llarga kirib ketishlariga sabab bo`ladi. Shu boisdan ota-onalar oilaviy tarbiyada, farzandlari bilan bo`ladigan shaxslarlaro munosabatlarda, ular bilan muomala qilishda shaxs va yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar oilaviy tarbiyaning samarasi yuqori bo`lishligini ta’minlagan bo`lar edi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. N.G`.Komilova. Xulqi og`ishgan yoshlar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. Toshkent 2013.

2. Yadgarova G.T., Avlayev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo`llanma) T.: 2007 y.

3. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.

4. Игошев К.Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей. М. 1967

5. Менделеевич В.Д. «Психология девиантного поведение». Учебное пособие для вузов. Речь. Санкт-петербург – 2005.

6. http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/491